

AKADEMIK SOBIR KAMALOVNING PEDAGOGIK FAOLIYATI**Abatov Asqar Reyimbayevich**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi, Nukus shaxri

askarays@mail.ru

+998913815164

Kalit so'zlar: *akademik S.K.Kamalov, tarix, pedagogik faoliyat, Markaziy Osiyo, maktab, o'qituvchi, jamoatchilik faoliyati*

Ключевые слова: *академик С.К.Камалов, история, педагогическая деятельность, Центральная Азия, школа, учитель, общественная деятельность*

Keywords: *academician S.K.Kamalov, history, pedagogical activity, deputy, Central Asia, school, teacher, social activities*

REZYUME

Akademik S.K.Kamalov haqli ravishda Qoraqalpog'iston tarixi maktabining asoschisi va qoraqalpog' xalqi tarixini chinakam ilmiy tadqiq qilishning boshida turgan olimlarning ustozidir. Maqolada S.K.Kamalovning pedagogik sohada olib borgan ishlari keng yoritilgan. Jumladan, u talabalarga «Qoraqalpog' xalqining etnogenezi» bo'yicha maxsus kursdan ma'ruza o'qigan ishlari aniq misollarda keltirilgan. Ustoz S.Kamalovning ilmiy asarlari va pedagogik faoliyatidagi yutuqlari mamlakatimizning ta'lim sohasida o'z ahamiyatini saqlab qolgan fundamental kashfiyotlar bo'lib xizmat qildi.

РЕЗЮМЕ

Академик С.К.Камалов по праву является основателем школы истории Каракалпакстана и наставником ученых, стоящих у истоков подлинно научного исследования истории каракалпакского народа. В статье широко освещены работы С.К.Камалова в области педагогики. В частности, на конкретных примерах приведены работы, где он читал лекции студентам по специальному курсу "Этногенез каракалпакского народа." Научные труды и достижения учителя С.Камалова в педагогической деятельности послужили фундаментальными открытиями, сохранившими свою значимость в сфере образования нашей страны.

RESUME

Academician S.K.Kamalov is rightfully the founder of the Karakalpakstan history school and the mentor of scholars who stood at the origins of genuine scientific research of the history of the Karakalpak people. The article extensively covers the work of S.K.Kamalov in the field of pedagogy. In particular, the works where he lectured to students on the special course "Ethnogenesis of the Karakalpak People" are given with specific examples. Teacher S.Kamalov's scientific works and achievements in pedagogical activity served as fundamental discoveries that have retained their significance in our country's education sector.

O'qituvchilik-pedagogik kasb akademik S.Kamalovga mehnat faoliyatining birinchi kunlaridan to umrining oxirigacha hamrohlik qilgan. Akademik X.Xamidov uning niyati pedagogik uchilisheni bitirib o'qituvchi bo'lib ishlamoqchi edi deb yozadi[1]. Sobir Kamalovni yaqindan biladigan bu odamlarning yozganiga qarab xulosa chiqarishimiz mumkinki, pedagogik faoliyat, o'qituvchi bo'lish uning yoshligidan niyati va maqsadi bo'lgan. Olimning o'zi ham intervyusida «Yoshligimdan o'qituvchi bo'lishni orzu qilar edim», -deb e'tirof etadi[2].

Akademik olimning va iste'dodli ustozning o'zidan qoldirgan ko'p sonli salmoqli va o'z bahosini yo'qotmagan ilmiy va ilmiy-pedagogik meroslari shogirdlari tomonidan davom ettirib kelinmoqda. Olim S.Kamalovning sabrliligi, tolmas mehnatsevarligi, harakatchanligi va Sobiq Ittifoqning yirik olimlari S.P.Tolstov, T.A.Jdanko, Yu.A.Rapaport, Ya.G'ulamov, N.Davqarayev rahbarligida va qo'llab-quvvatlashi orqasida o'z bilimni kengaytiradi, tarix fanining eng ahamiyatli masalalari buyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi.

S.Kamalov Institutta o'qish bilan bir vaqtda 1945-yil 15-fevralidan 1948-yil avgust oyigacha o'zi singari talabalarga harbiy tarbiya kafedrasida harbiy tayyorgarlik va jismoniy tarbiya fanlaridan katta o'qituvchi lavozimida dars beradi. 1945-yil fevral oyidan 1947-yildan jismoniy tarbiya fakultetining kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritadi. Usha yillari S.Kamalovning institut auditoriyasida va harbiy mashg'ulot maydonchasida ofitser formasida talabalarga harbiy fanlardan dars berayotganlarini va institut direktorlariga harbiy davrning qonuni bo'yicha hisobot qilib turganlari biroz zamondoshlarining xotirasida hozirgacha saqlanib qolgan [3]. Akademik X.Xamidovning fikricha S.Kamalovning ilmga va yurtimizning ilmiy va ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan

dastlabki yo‘li urush sababli harbiy ishlardan dars berish va talabalar bilan hamkorlik qilish orqali boshlangan[4].

1957-yili 15-maydan boshlab Qoraqalpoq davlat pedagogika institutning rektori sifatida tayinlanadi. Mazkur bilim yurtida Omar Buleshev, Majit Galekeev, Aytjan Yesemuratov, Asqar Tajimuratov, Dosjanbay Nasirov kabi tajribali va o‘z ishiga puxta insonlar bilan maslahatlashgan holda o‘quv-tarbiya ishlarini olib borib, tartib-intizomni yo‘lga quyadi[5]. Akademik Sobir Kamalov Pedagogika institutning rektoridan boshqa ishga o‘tganidan so‘ng ham institutdagi tarix kafedrasidan qo‘l o‘zmagan, o‘qituvchi bo‘lib faoliyatini davom ettirgan. Tarixchi Abdikerim Qoshanovning yozishicha u talabalarga «Qoraqalpoq xalqining etnogenezi» bo‘yicha maxsus kursdan ma‘ruza o‘qigan [6]. Auditoriyaga kirib kelganda, usha yillardagi urf-odatga hos yirik papkasini stolga quyib, kafedraga ma‘ruza o‘kishga chiqqanida talabalarga kulib, mehrli ko‘zlari bilan qarab quyadigan odati bo‘lgan ekan. Usha paytda auditoriya guyoki nurga to‘lganday bo‘lib, hamma uning ma‘ruzasini diqqat bilan tinglab, bexato yozib olishga harakat qilgan. Uning har bir so‘zi, har bir gapi ilmdan darak berar, usha paytlarda har bir dars davom etgan 90 daqiqa davomida olim birorta foydasiz, quruq so‘z aytmagan. Olim S.Kamalov yuqori keng diapazonda, faqatgina o‘ziga hos bo‘lgan mayin ovoz bilan ma‘ruza o‘qir edi. U namunali akademik uslubda ma‘ruza o‘qiydigan tug‘ma notiq edi. Uning nutqi tinglovchilarni o‘rgatgan, rivojlantirgan, ilmiy tadqiqotlarga qiziqish uyg‘otgan. Tabiat unga yaxshi va qiziqarli hikoyachiga xos bo‘lgan a‘lo sifatlarni: notqlik mahorati, benuqson diksiya va yoqimli ovoz tembri in‘om etgan. Sobir Kamalovning ajoyib lektorlik qobiliyati uning umumiy fazilatlaridan kelib chiqqan edi [7].

S.Kamalov talabalar bilan mashg‘ulotdan keyin ham ish kuni oxirigacha kutubxonalarda ertangi darslarga ma‘ruzalar konspektini tayyorlash bilan shug‘ullangan. Ustozning ma‘ruza o‘qish usuli, ayniqsa, ma‘lumotni faktlar bilan ilmiy usullarda asoslab berishi, amaliy ishlarni talabalar bilan yakka holda o‘tishi, shoshmasdan tushuntirishlar olib borishi shogirdlarini hayron qoldirar edi. Uning omma oldidagi nutqi hech qachon asosiy maqsad – ilmiylikdan chekinmagan. Shuning uchun ham uning lektor sifatidagi shuhrati qonuniy va munosib edi. Uning ma‘ruzalari hatto dissertatsiya himoyasi kabi jonli qiziqish uyg‘otdi, ko‘plab odamlarni to‘pladi. O‘ziga xos va yorqin rangbarang ma‘ruza qilish S.K.Kamalovga polemika san‘atini mohirona egallashga yordam berdi. Darxaqiqat, tadqiqotimiz davomida guvoh bo‘ldikki, olim suhbatdoshining xatosini mohirona tuzatishi va aqlli, nozik kinoya bilan o‘ziga qaratishi mumkin edi.

S.Kamalov butun pedagogik faoliyat davomida tarix fani mutaxassislarining va ilmiy xodimlarining bir nechta avlodini tarbiyalashga va tayyorlashga katta hissa ko'shdi. O'ta muloyim va sinchkov ustoz har bir talaba bilan til topib suhbatlashib, uning qobiliyatini o'z vaqtida anglab, uni rivojlantirishga mos yo'l-yo'riq ko'rsatar edi. U Pedinstitutda «Qoraqalpoq xalqining etnogenezi» fanidan dars berganda, o'qigan ma'ruzalari va o'tkazgan amaliy darslari tinglovchilarning oldida tarix fani bo'yicha faqat nazariy bilim berib qo'ymasdan, xalqimizning jonli tarixi, etnografiyasi, urf-odatlar, qadriyatlar, buyicha mustaqil fikrlash qobiliyatiga o'rgatar ekan. S.Kamalov yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini orttirishga doimo g'amxo'rlik qilib, o'quv-moddiy bazani yaxshilash ishlariga ham hissa qo'shgan. Shundan kelib chiqib, o'zining pedagogik faoliyati davomida o'zining barcha kuch-g'ayratini, bilim va ilmiy tajribasini Qoraqalpog'iston umumta'lim maktablarida yuqori toifali tarix mutaxassislarini tayyorlashga hissasini qo'shti desak aslo xato bo'lmaydi. U o'zining ko'p yillik tajribasiga tayanib, akademik muassasaning haqiqiy olimi albatta oliy o'quv yurtida ishlashi kerak deb hisoblagan. Chunki talabalar auditoriyasi har doim olimning professionalligiga ilhomlantiruvchi ta'sir ko'rsatgan. Aftidan, S.Kamalov o'z tajribasidan kelib chiqib, oliy dargoh bilan aloqasi bo'lmagan va erishgan nazariy ilmiy yutuqlarini amaliyotda, ya'ni talabalar auditoriyasi oldida sinovdan o'tkazmagan olim ma'lum vaqtdan so'ng kasbiy jihatdan «qotib qolishi» va o'zining tor mavzuli tadqiqotlari bilan butunlay cheklanishi mumkin, degan asosli xulosaga kelgan. Haqiqiy olim har doim formada bo'lishi, o'z bilimini doimo oshirib borishi kerak degan asosli xulosaga kelgan. Akademik S.Kamalov o'z faoliyatini tarixga qiziquvchan talabalari va tinglovchilarning ko'p sonli auditoriyasiz tasavvur qila olmagan.

Har bir inson bolasi bu yorug' olamga kelgandan so'ng, o'z ona tilini, xalqining tarixini, o'tmishini, bilishga harakat qiladi. Ta'lim sohasida o'qib tarbiya olayotgan o'g'il-qizlarimiz ertangi kelajagimiz hisoblanadi. Sababi ularga qanchalik teran, puxta bilim bersak, ma'naviyati ham yuqori, aqli zukko avlod bo'lib yetilishadi. Bularni to'g'ri anglab yetgan ota-onalar farzandini yaxshi bilim olishiga, iloji bo'lsa oliy ma'lumotli qilib o'qitishiga harakat qilishadi. Bunda albatta, oliy o'quv yurti o'qituvchilarining beqiyos hissasi bor, albatta. Buni akademik Sobir Kamalov ham yaxshi anglagan. O'z ustida tinimsiz mehnat qilib, o'qishdan tuxtamay, talabalarga yangi ma'lumotlar olib kelishga harakat qilib, o'z tajribasi bilan boshqalarni ham baham ko'rgan. S.Kamalov pedagog sifatida talabalarga dars berganida qoraqalpoq xalqining bugungi kunigacha bo'lgan tarixi, madaniy meroslari, etnografiyasi, el-boshqargan oqsoqollari, xalqni himoya qilgan botirlari, diniy ulamolar xaqida qo'shimcha darsga hikoya qilib borgan.

Bundan maqsad esa, tabiiyki, darsni mazmunli, sifatli qilib o'tish, talabalarni vatanimiz tarixiga qiziqishini uyg'otish edi. U dars berganda tariximizning muammoli masalalari buyicha munozara qilib vaqtning qanday o'tib ketgani sezilmay qolgan. U talabalarning oldida o'zining bilimdonligi, yuqori eruditsiyasi, o'z fanini yuqori pedagogik va metodik jihatdan mukammal egallagan pedagog oliy o'quv yurtida dars berishi kerak degan tushunchada bo'lgan. Darhaqiqat, dars faqat 80-90 daqiqa ma'ruza o'qib ketish emas, balki talabalar bilan kichik bilim va tarbiya soati hisoblanadi. Olim S.Kamalovning yana bir pedagogik sifati talabalarga uy fazifasi sifatida insho yozib kelish topshirgan. Bunda talabalar o'z to'g'ilgan qishlog'i tarixi, uning hayotida iz qoldirgan odamlari, madaniy meroslari, qishlog'ining toponimikasi haqida insho yozib kelgan. Taxmin qilishimizcha, bu olimning etnografiya otryadi tarkibida ekspeditsiyada qatnashgan yillari informatorlardan ma'lumot yig'ib o'rgangan tajribasidan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, S.Kamalov ilmiy, ma'muriy, rahbarlik lavozimlarini va jamoatchilik ishlarni olib borish bilan birga, respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari bo'lgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida kadrlar tayyorlash ishlarida faoliyat olib borganligini aytib o'tish lozim. Universitetning "O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixi" kafedrasida 1999-yildan boshlab umrining oxirigacha talabalarning diplom ishlariga va magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy jihatdan rahbarlik qildi[8]. Shunday qilib, S.Kamalov haqiqiy professional pedagog sifatida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlarining boshida turdi. Uning minglab shogirdlari turli sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan va yuritmoqda. Ular kasbiy tayyorgarligiga ko'rsatilgan tarbiyaviy ta'sir, bebaho hayotiy maslahatlar, bir umrdaga esda qolarli xizmatlari uchun samimiy minnatdorchilik izhor etadilar. Akademik S.Kamalov o'z shogirdlarining, o'quvchilarining xotiralarida, albatta, fidoyi xizmati, talabchanligi, bag'rikengligi, sabr-toqatliligi, yuksak insoniyligi va odob-axloqi fazilatlarini bilan mangu qoladi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

- 1.Xamidov X. Ulli alim, ajayip insan: Akademik Sabir Kamalov 70 jasta // Yerkin Qaraqalpaqstan. – 1994. 6-sentyabr
- 2.Oteo'liyev O. XXI asir bosag'asinda: daslepki miymanimiz akademik Sabir Kamalov.//Yerkin Qaraqalpaqstan.-2000. 28-noyabr
- 3.Xamidov X. Ulli alim, ajayip insan: Akademik Sabir Kamalov 70 jasta.//Yerkin Qaraqalpaqstan. – 1994. 6 sentyabr

4.Xamidov.X. Ulli alim, ajayip insan: Akademik Sabir Kamalov 70 jasta // Yerkin Qaraqalpaqstan. – 1994. 6 sentyabr

5.Aytmuratov J. Universitet ashiw jolindag'i daslepki qadimler. Akademik Sabir Kamalov tavalludining 100-yilligiga bag'ishlangan "Qoraqalpog'iston tarixining dolzarb masalalari: o'tmishi va buguni" nomidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Nukus. 2024.

6.Qoshanov A. Akademik S.K.Kamalov //Sovet Qaraqalpaqstani gazetasi. 1984-y. 22-iyun

7.Qoshanov B. Формирование научной школы академика С.Камалова. Akademik Sabir Kamalov tavalludining 100-yilligiga bag'ishlangan "Qoraqalpog'iston tarixining dolzarb masalalari: o'tmishi va buguni" nomidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Nukus. 2024.

8.Seytimbetov M.K. Akademik Sabir Kamalov – ulli alim, pidayi ham sabirli insan yedi. Akademik Sabir Kamalov tavalludining 100-yilligiga bag'ishlangan "Qoraqalpog'iston tarixining dolzarb masalalari: o'tmishi va buguni" nomidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Nukus. 2024. 11-b